

**MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING
TRANSFORMASIYALASHUVI**

Djurayev Lukmon Narzullaevich,

*Samarqand davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya
kafedrası f.f.d. DSc., dotsent*

Ro'zimurodov Siroj Madatovich,

SamISI, ijtimoiy fanlar kafedrası kafedrası (PhD) dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyoti sharoitida yoshlar iqtisodiy madaniyatining o'zgarish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, raqamli iqtisodiyot, globallashuv va bozor munosabatlarining rivojlanishi yoshlarning iqtisodiy qarashlari, moliyaviy savodxonligi va tadbirkorlik faolligiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yoritiladi. Shuningdek, yoshlar iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimi, davlat siyosati va innovatsion muhitning o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, iqtisodiy madaniyat, transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, globallashuv, bozor munosabatlari, innovatsiyalar, iqtisodiy tafakkur, ijtimoiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы изменения экономической культуры молодежи в условиях развития общества. В частности, освещается, как развитие цифровой экономики, глобализации и рыночных отношений влияет на экономические взгляды, финансовую грамотность и предпринимательскую активность молодежи. Также раскрывается роль системы образования, государственной политики и инновационной среды в формировании экономической культуры молодежи.

Ключевые слова: молодежь, экономическая культура, трансформация, цифровая экономика, финансовая грамотность, предпринимательство, глобализация, рыночные отношения, инновации, экономическое мышление, социальное развитие.

Abstract. This article analyzes the processes of changing the economic culture of young people in the context of societal development. In particular, it highlights how the development of the digital economy, globalization, and market relations influences young people's economic views, financial literacy, and entrepreneurial activity. The role of the education system, state policy, and innovation environment in shaping the economic culture of young people is also revealed.

Keywords: youth, economic culture, transformation, digital economy, financial literacy, entrepreneurship, globalization, market relations, innovation, economic thinking, social development.

Bugungi kunga qadar yoshlik davrini biologik jihatdan davriylashtirish masalasi ilmiy doiralarda hamon munozarali bo'lib qolmoqda. Mazkur muammo dastlab sodda ko'ringani bilan, aslida chuqur nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab masaladir. Chunki har bir davlatda yosh toifasining aniq chegaralarini belgilash, avvalo, yoshlarga taqdim etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, imtiyozlar, kreditlar va boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rejalashtirish hamda aholining statistik hisob-kitoblarini to'g'ri yuritish zaruratidan kelib chiqadi. Yoshlik davrining quyi va yuqori chegaralarini aniqlash, o'z navbatida, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini rag'batlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va

strategiyalarining ko‘lami hamda yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu bois, yoshga oid mezonlarni ilmiy asoslash nafaqat demografik yoki biologik, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida davlat tomonidan zarur moddiy hamda moddiy-texnik resurslar tizimli va uzluksiz ravishda safarbar etib kelinmoqda. Bu esa yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda jamiyat taraqqiyotida faol ishtirokini ta‘minlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy falsafada “Yoshlik” tushunchasi, mohiyati va uning chegarasi, noyob o‘ziga xos xususiyatlari haqida turli-tuman fikrlar, qarashlar va nazariyalar mavjud.

Bu maqsad xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi ga fan, texnika va ta‘limda proyektiv tafakkur tarzini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir”[1-14] – deb ta‘kidlaydi. Yoshlarning o‘sh xususiyati, yoshi, jismoniy va ruhiy etukligi turli davrlarga xos yosh avlodlarning bir-biriga o‘xshashligini aniqlaydi. Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy transformasiyalar yoshlarni insoniyat jamiyati taraqqiyotidagi alohida status va o‘rni ijtimoiy tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda yoshlarning faol ishtiroki natijasida innovasion, imkoniyatlar darajasi, integrasiya kabi vazifalarni bajarishi bilan katta ahamiyatga ega.

Bugungi O‘zbekiston jamiyatida yoshlarning o‘rni va mavqei quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

birinchidan, yoshlar - ishlab chiqarishda hal qiluvchi o‘rin ahamiyatga ega bo‘lgan tizimli ravishda yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantiradigan ijtimoiy qatlam.

ikkinchidan, yoshlar – jamiyatning eng faol, tez harakatchan, aqliy va jismoniy jihatdan etuk, jamiyat hayotining barcha sohalarida mehnat, ijodkorlik, samarali faoliyat uchun katta ikoniyatlarga ega bo‘lgan qatlam;

uchinchidan, yoshlar ulkan ijtimoiy va kasb-korga ega bo‘lgan yangi bilimlar, kasb-korlar va mutaxassisliklarni o‘zida mujassamlashtirgan boshqa ijtimoiy guruhlariga nisbatan eng faol qatlamdir;

to‘rtinchidan, yoshlar nafaqat sub‘ekt, balki jamiyat hayotining moddiy va ma‘naviy boyliklari merosxo‘ri bo‘lish bilan birga, yanada ilg‘or ijtimoiy munosabatlarning yaratuvchilaridir;

beshinchidan, yoshlar sodir bo‘layotgan har qanday yangiliklarni tez va tabiiy ravishda qabul qiladilar.

Shuning uchun yoshlar katta ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos qatlam bo‘lib, bir tamondan, ular tengqurlari va ijtimoiy guruhlardan ajralib tursa, boshqa tamondan, esa jamiyatning barcha jabhalarida o‘ziga xos o‘rin egallashga imkoniyat mavjuddir.

Hozirgi globallashtirish jarayonida yoshlarning roli va o‘rnini baholash quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin deb hisoblaydimiz: 1) jamiyatdagi yangi o‘zgarishlarning umumiy tabiati va jamiyat qonunlari asosidagi avlodlar almashinuvi; 2) yoshlarning ijtimoiy faolligi jihatdan farqlanishi; 3) yoshlarda ijtimoiy mobellik darajasini o‘rni tahlil qilish; 4) ijtimoiy ta’sir doirasidagi ijtimoiy faoliyat sub’ekti sifatida yoshlarning erishayotgan yutuqlaridan bir-birining xabardorligi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni haqida shunday ta’kidlaydi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”[2]. Shu o‘rinda O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashining qo‘shma qaroriga asosan tasdiqlangan Nizom ham tadbirkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lmoqda. Nizom bo‘yicha bank tomonidan yosh tadbirkorlarning startap loyihalarini moliyalashtirish uchun jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag‘lar hisobidan kredit ajratiladi. Unda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan yosh tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 3 ming hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yosh tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 1 ming baravarigacha miqdorda olti oygacha imtiyozli davr bilan 3 yil muddatgacha kredit ajratilishi belgilab qo‘yilgan. Albatta, bu imtiyoz ham yoshlarga qulay imkoniyatdir.

Ayniqsa bugun yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan Prezident farmon va qarorlari, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida davlat qonunlari yoshlarning o‘z huquqlaridan foydalanishga shart-sharoit yaratib, o‘z bizneslarini erkin tashkil qilish imkoniyatini bermoqda. Bu xususda AQShlik faylasuf, sosiolog, futurolog Elvin Toffler (1928-2016): “... har qanday iqtisodiyot, mahsulot ishlab chiqarish, daromad topish, umuman hamma narsaga erishish muqarrar ravishda hokimiyatning uch manbai bo‘lgan: kuch, boylik va bilimga bog‘liq. Kuch qonunga aylanadi. O‘z navbatida, kapital va pul endilikda bilimga aylanadi. Mehnat ham o‘zgarib, uning ko‘rinishi manipulyasiya qilishga bog‘liq bo‘lib qoladi. Kapital, pul va ishchi kuchi bir xil yo‘nalishda, iqtisodiyotning poydevoridagi inqilobiy o‘zgarishlarga qarab harakat qiladi. Bilim bunday rivojlanishining asosiy manbaiga aylanadi. Natijada, u iqtisodiyotning amaldagi qonunlardan butunlay farq qiladigan yangi qonunlarga

muvoqif yashaydigan supersimvolik iqtisodiyotga aylanadi”[3-120],-deb yozgan edi. Demak, biz ilgari surayotgan qonun o‘zining hayotiyliigi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotini kelgusida ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka asoslangan supersimvolik iqtisodiyotga aylantirishga imkon beradi. Xo‘sh, mazkur hujjatni qabul qilishga qanday zarurat bor edi, nega aynan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda? Qarorning asl maqsadi va mazmun-mohiyati nimalardan iborat o‘zi? Keyingi yillarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznesning ushbu shakli bilan shug‘ullanayotganlarga ko‘plab imtiyoz hamda imkoniyatlarni yaratib berish maqsadida barcha kuch safarbar etildi. Soliqdan ozod etish bo‘ladimi, energiya resurslari to‘lovidagi imtiyozlarmi, mahsulotni sotishdagi erkinlikmi, xullas, hamma sharoitlar bugun muhayyo.

Hozirgi kunda zamonaviy o‘zbek jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatini rivojlanishi va uning sub'ektlari soniga ko‘ra bir nechga bo‘lish mumkin:

1) mamlakatimizda berilgan keng imkoniyatlar yosh tadbirkorlarni avvalo ish o‘rnini ochish va uni kengaytirilishiga qaratilishi kerak. Ish o‘rini yaratuvchilar maqsadli ishlarni amalga oshirishi, etarli shart-sharoitlar yaratishi, foyda olishni ijtimoiy ko‘mak bilan birga amalga oshirishi, ishlab chiqarish me‘yorlariga, mehnat kodeksidagi moddalar asosida ish olib borish talab qilinadi;

2) Ishlab chiqarish korxonaga qabul qilingan yosh xodimlarning, davlat va nodavlat sektordagi xodimlarning iqtisodiy madaniyati yangicha tartibda amalga oshishi kerak.

3) har bir oila – tadbirkor davlat dasturi asosida kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiy madaniyatini shakllanishi. Bu erda, avvalo, tadbirkorni ehtiyojlari va shu bilan birga davlat ehtiyojlari hisobga olinadi. Bozor qonunlari asosida mahsulot ishlab chiqarish, sifat, mijoz, narx va muomala madaniyatining uzviyiligi asosida shakllanadigan iqtisodiy madaniyat yoshlar tadbirkorligining kelajagini bildiradi;

4) marginal[6] ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy madaniyati. Bu o‘tish davridagi ijtimoiy guruh bo‘lib, ular hozirgi paytda ko‘proq migrasiyani ma‘qul ko‘rishadi. Migrasiyaga ketish va ottirgan kapitalini faqat qurilish va mashina sotib olish uchun ishlatuvchi ijtimoiy qatlam. Ular tashqi migrasiya orqali kapitalni to‘plashi va yaxshi yashash uchun faqat o‘ziga uy-joy qurish, qulayliklarni yaratish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Ular dastlabki kapitallarini ishlab chiqarishga jalb qilish, korxonaga ochish, ikkilamchi daromad topish, shaxsiy biznesni rivojlantirish kabi bilimlarga ega emaslar.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, iqtisodiy madaniyat jamiyat iqtisodiy hayoti sifati, uning asosiy shakllari va funksional xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi hamda ularni ta’minlovchi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Xususan, yoshlarning mamlakat

iqtisodiy jarayonlaridagi ishtiroki va faollik darajasi bir qator mezonlar orqali namoyon bo‘ladi. Bular qatoriga amaldagi qonunchilikka ongli munosabat, iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatidan xabardorlik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro manfaatli hamkorlikka tayyorlik, raqobat muhitida erkin fikrlash, konstruktiv muloqot olib borish, shuningdek shaxsning o‘z qadr-qimmatini anglash va namoyon eta olish kompetensiyalari kiradi. Shu bilan birga, yoshlar iqtisodiy madaniyatida kuzatilayotgan ayrim tushkunlik kayfiyatlari va ijtimoiy passivlik holatlarini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bunday omillar iqtisodiy jarayonlarda to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – B. 14.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 3.72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 2017 yil 19 sentyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>.
3. Тоффлер Э. Метаморфозы власти = Powershift: Knowledge, Wealth and Violence at the Edge of the 21st Century, 1990. Москва.: АСТ, 2004. (Philosophy). - С.120.
4. <http://xs.uz/uzkr/post/har-bir-oila-tadbirkoruning-huquqij-asosi-mustahkam-imtiyozlar-kolami-keng>
5. Бозор, пул ва кредит. Ойлик илмий-амалий журнал. № 11. -Тошкент, 2020. -Б. 20.
6. Лот. marginalis — аросатдаги маданият. Ушбу атама америкалик социолог Р.Парк томонидан XX асрнинг 20 йилларининг иккинчи ярмида мулатларга нисбатан илк бор қўлланган. Унинг фикрича, жамиятда эгаллаб турган мавқеига кўра ўзига хос хусятларга, яъни безовталиқ, тажовузкорлик, шуҳратпараслик, қизикқонлик, тортинчоқлик ва эгоистик жиҳатларга эга бўлган кишилар.
7. Ruzimurodov S. M., Ruzimurodov O. M. The Role of the Neighbourhood in the Healthy and Harmonious Education of Young People in the Global Environment //Indiana Journal of Humanities and Social Sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 1-3.
8. Rôzimurodov Siroj Madatovich.: Madatovich R. The role of civic responsibility in educating youth in a healthy spiritual environment in an information society //Pubmedia Social Sciences and Humanities. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 6.
9. Rôzimurodov Siroj Madatovich.: Madatovich R. S. The role of preschool education and family education in the raising of a healthy balanced generation //For Teachers. – 2024. – Т. 57. – №. 4. – С. 520-523.